

«TURISTIK TASHKILOTLAR DAROMADLARI VA ULARNING AUDITORLIK TAHLILI»

Urazov Komil Baxramovich

SamISI I.f.d, professor.

Turg'unova Rayxona Shavkatjon qizi

SamISI 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18433748>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turistik korxonalarning daromadlari va ularning audit masalalari ko'rib chiqilgan bo'lib, daromadlar tuzilmasi, foyda manbalari va turistik kompaniyalarning moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Auditning mavjud usullari, jumladan ichki va tashqi audit, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini baholash va risklarni aniqlash maqsadida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Turistik tashkilotlar, daromadlar, moliyaviy natijalar, audit, ichki audit, tashqi audit, moliyaviy hisobot, tahlil, moliyaviy risklar, moliyaviy shaffoflik.

«REVENUES OF TOURIST ORGANIZATIONS AND THEIR AUDIT ANALYSIS»

Abstract. This article explores the revenues of tourist enterprises and the issues associated with their auditing. It provides a detailed analysis of revenue structure, sources of profit, and the factors influencing the financial performance of tourism companies. Various audit methodologies, including internal and external audits, are examined to evaluate the reliability of financial statements and to identify potential financial risks.

Keywords: Tourist enterprises, revenues, financial performance, audit, internal audit, external audit, financial statements, analysis, financial risks, financial transparency.

«ДОХОДЫ ТУРИСТИЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ИХ АУДИТОРСКИЙ АНАЛИЗ»

Аннотация. В статье исследуются проблемы формирования доходов туристических предприятий и их аудиторской проверки. Проанализированы структура доходов, основные источники формирования прибыли, а также факторы, оказывающие влияние на финансовые результаты деятельности туристических компаний. Отдельное внимание уделено современным методам аудита, включая внутренний и внешний аудит, оценке достоверности финансовой отчетности и выявлению потенциальных рисков.

Ключевые слова: туристические организации, доходы, финансовые результаты, аудит, внутренний аудит, внешний аудит, финансовая отчетность, анализ, финансовые риски, финансовая прозрачность.

Kirish. Turizm sohasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim tarmoqlardan biri bo'lib, turistik tashkilotlar daromadlarining shakllanishi va ularning moliyaviy natijalarga ta'siri alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Daromadlarni to'g'ri e'tirof etish va ularning tuzilmasini ishonchli baholash moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. Moliyaviy hisobotlar ishonchliligini ta'minlashda auditorlik tahlili asosiy vosita hisoblanadi.

Turistik tashkilotlar faoliyatida daromadlar bilan bog'liq xatoliklar va moliyaviy risklarning mavjudligi ichki va tashqi auditning tizimli qo'llanilishini talab etadi. Shu bois mazkur tadqiqot turistik tashkilotlar daromadlari va ularning auditorlik tahlilining nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan.

Turistik tashkilotlar daromadlari — bu turistik xizmatlar va mahsulotlarni realizatsiya qilish natijasida shakllanadigan iqtisodiy foyda bo'lib, korxonaning moliyaviy natijalarini belgilovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu daromadlar asosiy faoliyat, boshqa operatsion va moliyaviy faoliyatdan olingan tushumlar yig'indisini ifodalaydi. Daromadlarni to'g'ri e'tirof etish va ularning to'liq hisobga olinishi moliyaviy hisobotlar ishonchliligini ta'minlash hamda auditorlik tahlilining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Turizm korxonalari daromadlari faoliyat turiga va kelib chiqish manbalariga ko'ra quyidagicha asosiy turlarga tasniflanadi.

Asosiy faoliyat daromadlari:

✓ turistik paketlar savdosi – sayohat, ekskursiya va dam olish paketlarining mijozlarga sotilishi.

✓ transport xizmatlari – aviachipta, avtobus yoki boshqa transport vositalari orqali safarlarni tashkil etishdan tushadigan daromad.

✓ joylashtirish xizmatlari – mehmonxona, sanatoriy, kvartira yoki boshqa turar joylarni taqdim etish orqali olingan tushum.

✓ ekskursiya va qo'shimcha xizmatlar – gidlik xizmatlari, ekskursiya paketlari, ko'ngilochar dasturlar va boshqa qo'shimcha xizmatlar.

✓ ta'limiy va trening xizmatlari – turizm sohasida seminar, kurs va treninglarni tashkil etishdan tushadigan daromad.

✓ korporativ xizmatlar – kompaniyalar va guruhlar uchun maxsus paketlar, konferensiya va tadbirlar tashkil etishdan tushadigan daromad.

Boshqa operatsion daromadlar:

❖ ijaradan tushadigan daromadlar – korxona mulki yoki ob'ektlarini boshqa shaxslar yoki kompaniyalarga ijaraga berishdan olingan tushum.

❖ reklama va marketing xizmatlari – reklama joylashtirish, homiylik va boshqa marketing faoliyatidan tushadigan daromadlar.

❖ konsalting va xizmat ko'rsatish – turizm sohasida maslahat, yo'l-yo'riq yoki boshqaruv xizmatlaridan tushgan tushum.

❖ qo'shimcha xizmatlar – restoran, suvenir, transport va boshqa yordamchi xizmatlardan olingan daromad.

❖ favqulodda va noodatiy daromadlar – litsenziya, mol-mulkni sotish yoki boshqa bir martalik operatsiyalardan tushgan tushumlar.

Moliyaviy daromadlar:

• investitsiyalardan tushgan daromadlar – korxona mablag'larini aksiyalarga, obligatsiyalarga yoki boshqa investitsiya vositalariga joylashtirish natijasida olingan foyda.

• bank depozitlari va foiz daromadlari – omonat yoki vaqtinchalik mablag'larni bank hisobvaraqlarida saqlash orqali tushadigan daromadlar.


• valyuta operatsiyalari – chet el valyutasidagi operatsiyalar natijasida yuzaga kelgan foyda yoki kurs farqlari.

• moliyaviy aktivlarni sotishdan tushgan daromadlar – mol-mulk, qimmatli qog'ozlar yoki boshqa moliyaviy aktivlarni realizatsiya qilish natijasida olingan tushum.

- sugʻurta va kompensatsiyalardan tushadigan daromadlar – sugʻurta hodisalari yoki moliyaviy kafolatlardan olingan tushumlar.

Turistik korxonalar daromadlari auditi — bu moliyaviy hisobotlar va boshqa moliyaviy hujjatlar maʼlumotlarining haqqoniyligi, toʻliqligi va shaffofligini ilmiy asosda baholash jarayonidir. **Auditorlik tahlili** esa, audit natijalarini tizimli oʻrganish orqali korxona moliyaviy faoliyatining samaradorligini aniqlash va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beruvchi metodik vositadir.

1-chizma



Auditorlik tahlilini oʻtkazish turlari.

Auditorlik tahlili daromadlar strukturasi chuqur oʻrganish, asosiy va qoʻshimcha daromad manbalarini identifikatsiya qilish, moliyaviy risklarni baholash va korxona faoliyatining strategik istiqbollari uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, audit va tahlil natijalari turizm korxonalari moliyaviy shaffofligini oshirish, boshqaruv qarorlarini asoslash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol oʻynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turistik tashkilotlar daromadlarini shakllantirish va ularning auditorlik tahlili masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan boʻlib, mazkur yoʻnalishda xorijiy va mahalliy olimlarning qator fundamental tadqiqotlari mavjud. Xususan, A. Arens, R. Elder va M. Beasley tomonidan yozilgan “Auditing and Assurance Services” asarida auditorlik tekshiruvining metodologik asoslari, daromadlar boʻyicha xatoliklarni aniqlash usullari hamda auditorlik risklarini boshqarish masalalari yoritilgan. Ushbu ishlar daromadlar auditi jarayonini tashkil etishda muhim nazariy manba boʻlib xizmat qiladi.¹ Shuningdek, W. Messier, S. Glover va D. Prawitt oʻz tadqiqotlarida moliyaviy hisobotlarda daromadlarning haqqoniy aks ettirilishini taʼminlashda ichki nazorat tizimining oʻrni va ahamiyatini asoslab bergan.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa turistik tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish, daromadlarni hisobga olish tartibi hamda milliy qonunchilik talablariga muvofiqlik masalalari keng yoritilgan. Jumladan, Oʻzbekiston olimlari – A. Karimov, M. Tursunov, Sh. Raxmonovlarning ilmiy ishlarida turizm sohasida moliyaviy

¹ Names: **Arens**, Alvin A.; **Elder**, Randal J.; **Beasley**, Mark S.; Hogan, Chris E., authors. Title: *Auditing and assurance services* / by Alvin A. **Arens**, Randal J

hisobotlarni shakllantirish, daromadlarni e’tirof etish va auditorlik tekshiruvini o’tkazishning amaliy jihatlari tahlil qilingan.

Tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqot jarayonida turistik tashkilotlar daromadlari va ularning auditorlik tahlilini o’rganishda umumilmiy va maxsus ilmiy usullardan foydalanildi. Jumladan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usuli orqali mazkur soha bo’yicha mavjud nazariy qarashlar va ilmiy yondashuvlar umumlashirildi. Taqqoslash usuli yordamida turistik tashkilotlar moliyaviy ko’rsatkichlarining turli davrlardagi o’zgarishlari solishtirildi. Shuningdek, iqtisodiy tahlil va statistik usullar asosida daromadlar tuzilmasi, ularning dinamikasi hamda moliyaviy natijalarga ta’sir etuvchi omillar o’rganildi. Auditorlik tahlili jarayonida hujjatlarni tekshirish, hisob-kitoblarni qayta hisoblash hamda ichki nazorat tizimini baholash usullaridan foydalanildi.

Turistik korxonalar daromadlari auditi natijalari auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar va xalqaro audit standartlari talablari asosida rasmiylashtiriladi. Audit jarayonida olingan dalillar tizimli ravishda auditorlik ishchi hujjatlarida hujjatlashtiriladi hamda ularning moliyaviy hisobotlarga ta’siri baholanadi.

Tekshiruv yakunida auditor tomonidan auditorlik hisoboti tuziladi, unda daromadlarni e’tirof etishning to’g’riligi, ularning to’liqligi va amaldagi hisob siyosatiga muvofiqligi bo’yicha asoslangan xulosalar keltiriladi. Aniqlangan buzilishlar, ularning moliyaviy natijalarga ta’siri va auditorlik risklari alohida tahlil qilinadi.

Yakuniy bosqichda auditorlik xulosasi rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjatda moliyaviy hisobotlarning ishonchlilik darajasi, ularning amaldagi standartlarga muvofiqligi hamda moliyaviy shaffoflikni ta’minlash bo’yicha tavsiyalar aks ettiriladi.

2019 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan Konsepsiyasiga ko’ra, zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targ’ib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha (2017-yil yakuni bo’yicha — 2,3%) yetkazish, shuningdek, 2025-yil yakuniga qadar 9 milliondan ortiq turistlarni, shu jumladan uzoq xoriждан — 2 million turistni jalb qilish belgilab quyilgan² edi va reja yilining yakuniga ko’ra, Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlari 2025-yil yakunigacha jami 41,833845 mln nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda O‘zbekistonga tashrif buyurganligini ko’rsatdi.

2-chizma.

Yillar	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025	2019- 2025
Tashrif buyurgan turistlar soni (dona)	6748500	1504000	1881345	5210000	6600000	8200000	11700000	41833845

² [https://lex.uz/acts/-4143188-O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida-PF-5611 son 05-01-2019y](https://lex.uz/acts/-4143188-O'zbekiston-Respublikasida-turizmni-jadal-rivojlantirishga-oid-qo'shimcha-chora-tadbirlar-to'g'risida-PF-5611-son-05-01-2019y)

2019-2025-yillarda O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar soni (dona). (O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan qayta ishlangan)

Muammo va kamchiliklar. Turistik korxonalar daromadlarini shakllantirish, hisobga olish va audit qilish jarayonida qator tizimli muammolar va metodologik kamchiliklar mavjud.

Xususan, daromadlarni e'tirof etish mezonlarining amaliyotda bir xilda qo'llanilmasligi, hujjatlashtirish tartibining yetarli darajada takomillashmaganligi hamda ichki nazorat mexanizmlarining sustligi moliyaviy hisobotlar ishonchliligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, turistik xizmatlar ko'p bosqichli va kompleks xarakterga ega bo'lgani sababli daromadlarni taqsimlash va baholash jarayonida subyektiv yondashuvlar yuzaga keladi.

Mavsumiylik omili, axborot tizimlarining past darajada integratsiyalashuvi hamda xodimlar malakasining yetarli emasligi auditorlik risklarining oshishiga va auditorlik tahlilining samaradorligi pasayishiga olib keladi.

Taklif va tavsiyalar. Turistik korxonalar daromadlarini hisobga olish va auditorlik tahlilini takomillashtirish uchun daromadlarni e'tirof etish bo'yicha yagona metodik standartlarni joriy etish hamda ichki nazorat tizimini kuchaytirish zarur.

Audit jarayonlarida raqamli texnologiyalarni keng qo'llash auditorlik risklarini kamaytirish va tekshiruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish, xalqaro audit standartlarini amaliyotga tatbiq etish va moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish turistik korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.